



## TALABALARNING MUSTAQIL ISHLASH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRUVCHI DASTURIY TA'MINOTDAN FOYDALANISH HOLATI

**To'rayeva Gavxarbonu Tolibjonovna**

Alfraganus University, "Pedagogika" kafedrası, pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Email: farhodjon9618@mail.ru

Tel: +998 90-984-96-18

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17661331>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 15-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 20-noyabr 2025 yil

### KEY WORDS

*Hemis, telegram, mustaqil ishlash faoliyati, dasturiy ta'minot, innovatsion faoliyat, axborot, ta'lim, dizayn, grafik.*

### ABSTRACT

*Hozirgi kunda oliy ta'limda ta'lim tizimini boshqarishda foydalanib kelinayotgan Hemis platformasi va talabalar orasida ommalashgan telegram messenjeri funksiyalari birlashmasining imkoniyatlaridan foydalanib va biz taklif qilayotgan talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini rivojlantiruvchi dasturiy ta'minotdan foydalanish auditoriya va undan tashqaridagi mustaqil ta'limni samarali tashkil qilish metodlari ko'rsatib o'tildi.*


O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida "Mustaqil talim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil talim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" masalalarida talabalarining mustaqil ta'lim olishlarini, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz rivojlantirish orqali bo'lajak mutaxassislarining zaruriy kompetensiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan.

Talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini tashkil etish ta'limning zamonaviy bosqichining eng dolzarb muammolaridan biridir. Bu o'qituvchining shaxsiyatini kasbiy shakllantirish uchun zarur bo'lgan kognitiv mustaqillikni shakllantirish uchun asos bo'lgan yangi bilimlarni muntazam ravishda olish bilan bog'liq. Ba'zi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish muammosini hal qilishga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Uning murakkabligi va ko'p omilliligi shuni ko'rsatadiki, ushbu muammoni an'anaviy ta'lim shakllaridan foydalanish orqali hal qilish juda qiyin. Shunday qilib, yangi bilimlarni mustaqil ravishda olishni aktuallashtirish zamonaviy ta'lim tizimida qarama - qarshilik mavjudligi bilan bog'liq bo'lib, u bir tomondan bilimlarni tez sur'atlar bilan olish zarurligidan iborat bo'lib, o'quv sub'ekti tomonidan bilimlarni o'zlashtirish va an'anaviy o'qitish usullari bilan yangi bilimlarni olishning cheklangan imkoniyatlari bilan bog'liq[1,2].

Bizga ma'lumki mustaqil ishlash faoliyati bu-talabaning dars va darsdan tashqari faoliyatlarida o'z - o'zini rivojlantirish, kasbiy ko'nikmalarni egallash, mustaqil ishlarni kreativ

yondashgan holda bajarishga undovchi bilimlar to'plash, amaliy ko'nikmalar hosil qilish va tanqidiy fikrlash jarayonida amalga oshiriladigan faoliyatdir.

Shundan kelib chiqqan holda bu faoliyat bo'yicha kompleks yondashuvlarni amalga oshirish - dasturiy ta'minotni yaratish orqali amalga oshiriladi[3].



**1-rasm. Talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini amalga oshiruvchi dasturiy ta'minotni modeli**

Shiddat bilan davom etiyotgan globallashuv jarayoni ta'lim sohasini ham hetlab o'tayotgani yo'q. Bugungi kunda fan va texnologiyalar shunchalik tez rivojlanmoqdaki, ayrim yangilik va texnologiyalardan xabar topib ulgurunchalar eskilik qatoridan joy olmoqda. Bunday sharoitda ta'limda samaradorlikka erishish o'qituvchidan o'z sohasi bo'yicha muntazam izlanishni va har bir mavzu yuzasidan ma'lumotlar bazasini yangilab borishni taqozo etadi.

Simulyatorlar o'quv jarayonning qariyb barcha jabhalarida foydalanilmoqda. Simulyator dasturlaridan medisina sohasida bo'lajak jarrohlarni va hamshiralarni o'qitishda, tijorat sohasida biznes-simulyator o'yin dasturlardan foydalanilmoqda. Simulyatorlardan foydalanishning asosiy sabablaridan biri uning haqiqiy asbob-uskuna va jihozlarsiz virtual laboratoriya ishlarini o'tkazishga imkoniyat yaratishidir. Bu o'z-o'zidan nafaqat katta miqdorda mablag'lar tejallishiga, balki ularga umuman ehtiyoj ham tug'dirmaydi. Simulyatorlarning qariyb hech qanday moliyaviy mablag'lar talab etmasligi ma'lum tadqiqotlarni talabalar tomonidan ko'p marotaba qaytaqayta amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Simulyatorlardan foydalanishning yana bir afzallik tomoni ularning xavfsiz ekanligidir. Ba'zi tadqiqotlarni amalga oshirish inson hayoti uchun xavf tug'diradi, masalan, samolyotlarni boshqarish, yadro fizikasiga oid va kimyoviy hodisalarni o'rganish. Bunday tadqiqotlar katta miqdorda moliyaviy xarajat talab etibgina qolmasdan, tadqiqotni olib boruvchilar hayotiga havf ham tug'diradi[4,5].

Hozirda turli simulyator dasturiy vositalardan foydalanib, ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini, shuningdek talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish mumkin.

Masalan, Crocodile – clips kompaniyasining Crocodile Physics, Crocodile Technology, Crocodile Chemistry, Crocodile ICT dasturlarini, bundan tashqari Beginnings of Electronics, Interactive Physics, WorkingModel, Electronics Workbench, PhET Simulations, Pinter virtualLab Wave, MathCad, MatLab amaliy dastur paketlari va boshqa dasturiy ta'minotlarni keltirish mumkin.

Crocodile Technology dasturidan oliy ta'lim muassasalari talabalari, professor-o'qituvchilari "Elektrotexnika", "Sxemotexnika", "Elektr zanjirlar nazariyasi" fanlarida qo'shimcha pedagogik dasturiy vosita sifatida keng foydalanishlari mumkin.

Crocodile Chemistry dasturi orqali kimyoviy jarayonlarni modellashtirish, turli reaksiyalar jarayonlarini modellashtirish va eng asosiysi, buni xavfsiz amalga oshirish mumkin.

**Media ta'lim** – ta'lim oluvchilarning mediaresurslar yordamida media bilan munosabat qilish madaniyatini shakllantirish, media ma'lumotlarini anglash, tahlil qilish, talqin qilish va baholash orqali ijodkorlik, kommunikativlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini oshirish, shuningdek, media texnologiyalardan foydalanib, mustaqil ravishda o'z ustida ishlashning turli shakllarini o'rgatishga yo'naltirilgan shaxsni rivojlantirish jarayoni hisoblanadi.

Xitoyning eng katta onlayn platformalari sifatida 17zuoye va Cctalklarni keltirish mumkin. 17zuoye platformasi uy vazifalarini oflayn rejimidan onlaynga aylantirishga qaratilgan bo'lib, xitoychadan tarjima qilinsa "qo'shma uy vazifasi" degan ma'noni anglatadi. Cctalk platformasi esa dastlab e'lonlar taxtasi sifatida yaratildi va keyinchalik onlayn darslarni taklif qila boshladi. Ushbu Cctalk platformasi ma'lumotlar bazasi shaklida faoliyat yuritib, undan chet tillarini o'rganish, xalqaro va milliy imtihonlarga tayyorlanish, kasbiy mahorat va boshqa ko'plab sohalarga oid turli xil ta'lim dasturlarini topish mumkin.

Rossiyaning SkySmart maktabi ta'lim dasturi bolalar va o'smirlar uchun bepul ingliz tilini o'rgatadigan Skyeng loyihasidan boshlanib, 2019 yilga kelib bitta fan doirasidan chiqib boshqa fanlar uchun ham ixtisoslashgan interaktiv maktabga aylandi. Hozirgi kunda SkySmart maktabida 15 dan ortiq fanlar bo'yicha o'quv dasturlari bazasi mavjud. Ushbu platforma har bir bolaga o'ziga mos keladigan o'qitish shaklini tanlash imkonini beradi. Ular maktab dasturidagi o'quv mashg'ulotlari interfaol ta'lim kvestlari, onlayn-tengdoshlar lageri, vebinar, ma'ruzalar, suhbatlar va o'quv klublarida ishtirok etishlari mumkin.

Ta'lim sifatini oshirish borasidagi maqsadlarga erishishda o'quv-metodik bazani zamon talablariga javob beradigan tarzda takomillashtirish, ta'lim jarayoniga ilg'or axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ta'lim jarayonining nafaqat auditoriya shakli balki, auditoriyadan tashqari shakllariga ham e'tibor berish, uni tashkil etish va boshqarishning zamonning ilg'or talablariga javob bera oladigan, ta'limiy maqsadga erishishni ta'minlovchi yangi usullarini yaratish va amaliyotga joriy etish natijasida talabalar faolligini, mustaqilligini hamda motivatsiyalarini oshirish bilan bir qatorda ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunga kelib, media ta'limi, talabalarni ta'limga yo'naltirilgan shaxsiy media mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularni mustaqil ravishda kreativ va tanqidiy yondashgan holda idrok etishga o'rgatish vositalari va usullari to'plami sifatida, bugungi kunda har qachongidan ham dolzarbdir.

**Portal** – bu foydalanuvchiga axborotlarni oddiy navigatsiya va keng ko'lamli qulay interfeys orqali yetkazish uchun turli axborot resurslarini birlashtiruvchi tarmoq telekommunikatsiya tuguni hisoblanadi.

Har qanday portalning maqsadi – foydalanuvchiga unga zarur axborotlarni qisqa vaqtda va turli interfeyslar orasidagi o'tishlarni ortiqcha hattiharakatlarsiz taqdim etishdan iborat bo'ladi.

Taqdim etilayotgan axborot-ta'lim resurslari mustaqil faoliyat va ta'lim uchun topshiriqlarni, o'zlashtirilgan bilimlarni tekshirish uchun test sinovlarini, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni, bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan mashqlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

Ta'lim tizimini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri axborotkommunikatsiya texnologiyalari bilan o'quv jarayonini tizimli integratsiyalash hisoblanadi. Bunda o'quv jarayonini tashkil etish va uning mazmunini tubdan yangilash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitida o'qituvchining pedagogik faoliyati va talabani mustaqil ta'lim olish jarayonini tashkil etish strategik masala sifatida namoyon bo'ladi[6].

**Xulosa qilib aytadigan bo'lsak**, talabalarni mustaqil faoliyat yuritishga yordam beradigan yuqorida ko'rgan bir qancha web saytlar yordamida talabalar va ta'lim oluvchilarga masofadan turgan holda mustaqil bilim olishlariga imkon yaratadi. Oliy o'quv yurti talabalariga mustaqil ta'lim olishi uchun yordam beradigan web saytlar ayniqsa o'qitish joylariga qatnashi qiyin bo'lgan talabalarga qulaydir

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'raeva. G.T. "Kompetentli yondashuv asosida matematikaga fanini o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish modeli". //Boshlang'ich ta'limda integratsiyaviy-innovatsion yondashuvlar. Toshkent davlat pedagogika universiteti, respublika ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent 2019y. 5-may.71b.
2. To'raeva. G.T. "Matematika fanini o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning o'quv-pedagogik ta'minoti".//Jismoniy madaniyat va boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirish istiqbollari. Toshkent davlat pedagogika universiteti, respublika ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent 2020y. 531-533b.
3. To'raeva. G.T. "Kompetentli yondashuv asosida matematikaga fanini o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish modeli". //Boshlang'ich ta'limni tashkil etishning sifat va samaradorligini oshirish masalalari . Toshkent davlat pedagogika universiteti, respublika ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent 2022y. 190-193b.
4. To'raeva. G.T. "Kompetentli yondashuv asosida talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini takomillashtirish". //Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari 2023/ 4-son.. Toshkent 2023y.357-364b.
5. To'raeva. G.T. "Bo'lajak pedagog talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini takomillashtirish".//Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari 2023/5-son.. Toshkent 2023y. 451-457b.
6. To'raeva. G.T. "Bo'lajak pedagog talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini takomillashtirish". //Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari 2023/7-son.. Toshkent 2023y. 231-235b